

SUV RESURLARI BO'YICHA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING MANFAATLARI VA NIZOLARINI BOSHQARISH: SIYOSIY YONDASHUV VA TAHLILLAR

Zokirjonov Xudoberdi Xasaboy o'g'li

Toshkent davlat Transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

xudoberdizokirjonov00@gmail.com

Anonatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda suv resurslari siyosati davlatlararo kelishuvlar, manfaatlar muvozanati va siyosiy menejment nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. 1992-yil Almaty bitimi, 1998-yil Sirdaryo kelishuvi hamda IFAS va ICWC faoliyati asosida suv diplomatiyasining kuchli va zaif tomonlari baholanadi. Tadqiqot natijasida mintaqada barqaror suv boshqaruvi uchun siyosiy hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Markaziy Osiyo, suv siyosati, transchegaraviy suvlar, siyosiy menejment, suv diplomatiyasi, Almaty kelishuvi, Sirdaryo bitimi, IFAS, ICWC, manfaatlar muvozanati.

Annotation. This article analyzes water politics in Central Asia through interstate agreements, interest balance, and political management. The study reviews the 1992 Almaty Agreement, the 1998 Syr Darya mechanism, and the roles of IFAS and ICWC to assess the strengths and weaknesses of regional water diplomacy. The findings highlight the need for enhanced cooperation and modern management mechanisms to ensure sustainable water governance in the region.

Keywords. Central Asia, water politics, transboundary water resources, political management, water diplomacy, Almaty Agreement, Syr Darya Agreement, IFAS, ICWC, balance of interests.

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasi suv resurslariga eng ko'p ehtiyoj sezadigan, ammo suv taqsimoti notekis bo'lgan hududlardan biridir. Amudaryo va Sirdaryo havzalari mintaqaning asosiy suv manbalari bo'lib, ular sug'oriladigan qishloq xo'jaligi, energetika, ichimlik suvi ta'minoti va ekologik barqarorlikning poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, suvning yuqori oqimdan pastki oqimga tabiiy harakati davlatlar manfaatlarining kesishuvini kuchaytiradi. Natijada Tojikiston va Qirg'izistonning energetik ehtiyojlari bilan O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning qishloq xo'jaligi ehtiyojlari o'rtasida o'ziga xos siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar yuzaga keladi. Ushbu holat suv resurslarini boshqarish masalasini Markaziy Osiyoda strategik siyosiy muammolar qatoriga olib chiqadi. So'nggi

o‘n yilliklarda mintaqada suv diplomatiyasini shakllantirishga qaratilgan turli davlatlararo kelishuvlar mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi har doim ham barqaror va samarali natija bermagan. 1992-yil Almaty kelishuvi, 1998-yil Sirdaryo bo‘yicha “energiya–suv” almashinuvi mexanizmi, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (IFAS) doirasidagi loyihalar va oxirgi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan kuchaygan muloqotlar davlatlar o‘rtasida institutsional platforma yaratsa-da, suv siyosatidagi kelishuvlarning ijrosi va siyosiy muvofiqligi hamon izchil tadqiqotga muhtojdir. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida Markaziy Osiyoda suv tanqisligi xavfi ortib bormoqda. Shunga mos ravishda davlatlararo hamkorlikning samaradorligini oshirish, suv diplomatiyasini mustahkamlash va siyosiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish mintaqa barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot siyosiy menejment nazariyasi va amaliyoti asosida suv resurslari siyosatining mintaqaviy modelini tahlil qilish bilan, ilmiy hamjamiyat va amaliyotchi mutaxassislar uchun muhim ilmiy-amaliy xulosalar taqdim etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi Markaziy Osiyoda suv resurslari siyosatini siyosiy menejment yondashuvi orqali tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda kompleks va tizimli ilmiy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot eng avvalo tizimli tahlil yondashuviga tayanadi, chunki suv resurslari siyosati mintaqadagi ekologik barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, energetika va geosiyosiy manfaatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan, murakkab tizimini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida komparativ tahlil ham qo‘llanilib, Markaziy Osiyoda qabul qilingan asosiy kelishuvlar, 1992-yilgi Almaty bitimi, 1998-yildagi “energiya–suv” almashinuvi mexanizmi, IFAS doirasidagi hujjatlar va keyingi yillardagi diplomatik muloqot formatlari mazmun, maqsad va siyosiy funkcionalligi bo‘yicha solishtirildi. Bu usul kelishuvlarning samaradorligi, ularning kuchli va zaif jihatlari aniqlash imkonini berdi. Metodologiyaning asosiy o‘qi sifatida siyosiy menejment konsepsiyalaridan foydalanildi. Bu yondashuv davlatlararo suv siyosatini faqat texnik va huquqiy jarayon sifatida emas, balki real siyosiy manfaatlar kurashi va diplomatik boshqaruv jarayoni sifatida ko‘rishga imkon berdi. Tadqiqotda hujjatlar tahlili usuliga alohida o‘rin berildi. Mavjud xalqaro kelishuvlar matnlari, davlatlararo memorandumlar, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining hisobotlari, BMT, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning ekspert xulosalari o‘rganildi. Ushbu manbalar kelishuvlarning huquqiy-institutsional asoslari, ularning bajarilish mexanizmlari va amaliy samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili o‘tkazilib, transchegaraviy suv boshqaruvi, suv diplomatiyasi, ekologik siyosat va Markaziy Osiyo geosiyosiy munosabatlariga oid ilmiy maqolalar o‘rganildi. Bu mavjud ilmiy bo‘shliqni, davlatlararo suv kelishuvlari siyosiy menejment nuqtayi nazaridan yetarlicha tahlil qilinmaganini

ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar analitik-sintetik yondashuv orqali qayta ishlanib, har bir kelishuvning mintaqaviy siyosatga ta'siri, manfaatlar muvozanati, mavjud muammolar va institutsional cheklovlar umumlashtirildi.⁴⁹Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ekspert sharhlarida keltirilgan fikrlar ikkilamchi ekspert baholash manbasi sifatida qo'llanildi. Natijada tanlangan metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va siyosiy tahlilning nazariy-amaliy ahamiyatini ta'minladi. Ushbu metodlar suv resurslari bo'yicha kelishuvlarni kompleks ravishda, siyosiy, institutsional va geosiyosiy holatlar uyg'unligida o'rganishga imkon berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda suv resurslari siyosati bo'yicha davlatlararo kelishuvlar mintaqaviy barqarorlik, manfaatlar muvozanati va institutsional boshqaruv tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Analiz shuni tasdiqladiki, mustaqillikning ilk yillarida shakllangan kelishuvlar, avvalo, vaziyatni keskinlikdan saqlash, suv-energiya almashinuvini davom ettirish va mintaqaviy hamkorlikni minimal darajada bo'lsa ham ushlab turish vazifasini bajargan. Ayniqsa, 1992-yilgi Almaty kelishuvi barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan yagona umumiy asos bo'lib, transchegaraviy suv resurslarini "sovet davridagi kvotalar asosida" taqsimlash mexanizmini davom ettirdi. Tadqiqot natijalari ushbu kelishuv barqarorlikni saqlagan bo'lsa-da, uning amaliyotda to'liq bajarilishida institutsional bo'shliqlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. 1998-yilgi Sirdaryo bo'yicha "suv-energiya" almashinuvini mexanizmi esa qisqa muddatda samarali natija bergan bo'lsa-da, tomonlar o'rtasida kelishilgan texnik parametrlarga rioya etilmasligi, ishonchning yetishmasligi va siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar sababli uzoq muddatli barqaror modelga aylanmadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kelishuvning muvaffaqiyatsizligiga olib kelgan omillarning asosiy qismi siyosiy menejment jarayonlarida — manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kommunikatsiya yetishmasligi, o'zaro majburiyatlarning ustuvor emasligi va davlatlararo monitoring mexanizmlarining zaifligida namoyon bo'lgan. IFAS va ICWC kabi mintaqaviy institutlarning faoliyati tahlili esa ularning mavjudligining o'zi mintaqada muloqot va axborot almashinuvini yo'lga qo'yganini ko'rsatdi. Tadqiqotda aniqlanishicha, ushbu institutlar huquqiy jihatdan mustahkam bo'lsa-da, ularning qarorlarini bajarish majburiyati yetarli emas. Natijada, ular ko'proq "konsultativ platforma" vazifasini bajargan, lekin to'laqonli siyosiy boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanmagan. So'nggi yillarda, ayniqsa 2017-yildan keyingi davrda, mintaqada suv siyosatida ijobiy dinamika kuzatila boshlagani tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. O'zbekistonning qo'shni davlatlar

⁴⁹ MARKAZIY OSIYODA BARQAROR TRANSCHEGARAVIY SUV BOSHQARUVI: MUAMMOLAR, ZIDDIYATLAR VA MINTAQAVIY HAMKORLIK. Nodirjon Sa'diyev electron resurs – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/104330> (murojaat sanasi: 08.12.2025)

bilan ochiq diplomatiyaga o‘tishi, siyosiy ishonchning kuchayishi, qo‘shma komissiyalar faoliyatining jonlanishi hamda suv-energiya bo‘yicha integratsion yondashuvning qayta muhokama qilina boshlashi davlatlararo kelishuvlarning amaliy samaradorligini oshirgan.

⁵⁰Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda suv resurslarini boshqarish bo‘yicha qarorlar ko‘proq manfaatlarning uyg‘unlashtirilishi va siyosiy menejmentning zamonaviy tamoyillariga asoslangan. Shuningdek, tahlil mintaqadagi asosiy muammo sifatida davlatlar manfaatlarining uyg‘un emasligi, har bir davlatning suvga nisbatan turlicha strategik yondashuvga ega ekanini ko‘rsatdi. Yuqori oqimdagi davlatlar (Qirg‘iziston va Tojikiston) suvni energetik resurs sifatida ko‘rgan bo‘lsa, quyi oqimdagi davlatlar (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston) suvni irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi barqarorligi uchun zarur strategik omil sifatida talqin qilmoqda. Natijalar ushbu manfaatlar ziddiyati kelishuvlarning eng katta institutsional cheklovi bo‘lib qolayotganini tasdiqladi. Tadqiqotning yana bir muhim natijasi — suv bo‘yicha davlatlararo kelishuvlarning aksariyati doimiy siyosiy monitoring, majburiyatlarni bajarish mexanizmlari va o‘zaro javobgarlik tizimlari yetishmasligi sababli to‘liq ishlamayotgani aniqlanganidir.⁵¹ Shu bilan birga, oxirgi yillarda ko‘p tomonlama diplomatiya faollashgani, suv muammosining regional integratsiya kun tartibiga qaytgani va suv siyosati bo‘yicha o‘zaro bog‘liq qarorlar qabul qilish darajasi sezilarli oshgani ham e‘tirof etiladi. Markaziy Osiyo suv resurslari siyosatining samaradorligini baholash hamda davlatlararo kelishuvlarning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash maqsadida quyida SWOT tahlil keltiriladi.

S (Strengths) – Kuchli tomonlar	W (Weaknesses) – Zaif tomonlar
Mintaqa davlatlari yagona suv tizimiga bog‘langanligi hamkorlikni tabiiy qiladi.	Yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlarining keskin farqlanishi.
IFAS, ICWC kabi mintaqaviy institutlarning mavjudligi.	Kelishuvlar ijrosini nazorat qiluvchi mexanizmlarning zaifligi.
1992-yil Almaty kelishuvi, 1998-yil Sirdaryo bitimi — huquqiy asos mavjud.	Siyosiy ishonchsizlik, ma’lumot almashinuvi cheklangan.

⁵⁰ Markaziy Osiyo – suv resurslariga qaram bo‘lgan eng ko‘hna sivilizatsiya – tamaddunlardan biri. Iskandar Abdullayev – Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy hamkorlik instituti (SARES instituti) direktori o‘rinbosari, O‘zbekiston. Electron resurs – URL: <https://davr24.uz/archives/1282> (murojaat sanasi: 08.12.2025).

⁵¹ Markaziy Osiyoda suv muammolarini hal qilishdagi ustuvor vazifalar. Sevara Fayziyeva, O‘zbekiston Ekologik partiyasi Toshkent shahar Kengashi raisi. Electron resurs – URL: https://uza.uz/oz/posts/markaziy-osiyoda-suv-muammolarini-hal-qilishdagi-ustuvor-vazifalar_250917. (murojaat sanasi: 08.12.2025).

O‘zbekistonning konstruktiv diplomatik tashabbuslari.	Suv infratuzilmasining eskirganligi va yo‘qotishlarning yuqoriligi.
O (Opportunities) – Imkoniyatlar	T (Threats) – Xavf-xatarlar
Yangi suv bitimlarini takomillashtirish uchun siyosiy imkoniyatlar kengaygan.	Iqlim o‘zgarishi tufayli muzliklar kamayishi – suv hajmining qisqarishi.
Integratsiyalashgan suv boshqaruvi (IWRM) standartlarini joriy etish.	Yangi GESlar bo‘yicha kelishmovchiliklar ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin.
Energetika–irrigatsiya tizimlarini qo‘shma boshqarish.	2030-yilgacha suv tanqisligining keskin ortishi.
donorlar (Jahon banki, UNDP, YI) yordamlarini jalb qilish.	Aholining tez o‘sishi va iqtisodiy bosim kelishuvlarni murakkablashtiradi.

SWOT tahlili suv siyosatidagi asosiy muammolar va istiqbollarni aniqlab, kelgusi siyosiy qarorlar uchun yo‘nalish beradi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda suv resurslari siyosati murakkab, ko‘p qatlamli va manfaatlar to‘qnashuvi kuchli bo‘lgan siyosiy jarayon ekanini ko‘rsatadi. Eng muhim jihat shundaki, suv resurslarining tabiiy taqsimoti davlatlarning strategik yondashuvlarini tubdan farqlashga olib kelmoqda: yuqori oqim davlatlari suvni energetik salohiyat manbai sifatida baholasa, quyi oqimdagi davlatlar uni qishloq xo‘jaligi va ichki ijtimoiy barqarorlikning asosiy resursi sifatida ko‘rmoqda. Bu esa kelishuvlar samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi va siyosiy menejment nuqtayi nazaridan “manfaatlar muvozanati”ning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanadi. Muhokama jarayonida ko‘rinadiki, mintaqadagi asosiy kelishuvlar – 1992-yil Almaty bitimi, 1998-yil Sirdaryo bo‘yicha “energiya–suv” almashinuvi, IFAS va ICWC institutsional mexanizmlari – hamkorlik uchun ma‘lum asos yaratgan bo‘lsa-da, ularning amaldagi samaradorligi siyosiy ishonch, majburiyatlarning bajarilishi va monitoring tizimlari bilan cheklangan bo‘lib qolmoqda. Biroq xavflar – iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, yangi gidroloyihalar bo‘yicha kelishmovchiliklar – davlatlararo kelishuvlar mustahkam bo‘lmasa, siyosiy taranglikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mintaqada suv siyosatining barqarorligi siyosiy menejmentning zamonaviy mexanizmlari – manfaatlar muvozanatini ta‘minlash, diplomatik kommunikatsiya, texnik hamkorlik va institutsional monitoring tizimlarining takomillashuviga bog‘liqdir.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo suv resurslari siyosati davlatlararo munosabatlarning eng muhim va strategik yo‘nalishlaridan biridir. Suvning notekis taqsimoti, manfaatlar farqlanishi va institutsional mexanizmlarning zaifligi kelishuvlarning samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mintaqada diplomatik ochiqlikning kuchayishi, qo‘shma komissiyalarning faollashuvi va suv

diplomatiyasining rivojlanishi ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. SWOT tahlil shuni tasdiqladiki, mavjud kuchli tomonlar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish, xavf va zaif jihatlarni siyosiy menejment asosida boshqarish mintaqada suv siyosatining barqarorligini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Mintaqa davlatlari o'zaro manfaatlarni uyg'unlashtira olgan taqdirda, suv bo'yicha hamkorlik barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. MARKAZIY OSIYODA SUV RESURLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI. Amanali Amanbaev. Electron resurs - URL: <https://zenodo.org/records/17313036> (Murojaat sanasi: 08.12.2025).
2. MARKAZIY OSIYODA BARQAROR TRANSCHEGARAVIY SUV BOSHQARUVI: MUAMMOLAR, ZIDDIYATLAR VA MINTAQAVIY HAMKORLIK. Nodirjon Sa'diyev electron resurs – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/104330> (murojasr sanasi: 08.12.2025)
3. Markaziy Osiyo – suv resurslariga qaram bo'lgan eng ko'hna sivilizatsiya – tamaddunlardan biri. Iskandar Abdullayev – Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy hamkorlik instituti (SARES instituti) direktori o'rinbosari, O'zbekiston. Electron resurs – URL: <https://davr24.uz/archives/1282> (murojaat sanasi: 08.12.2025).
4. Markaziy Osiyoda suv muammolarini hal qilishdagi ustuvor vazifalar. Sevara Fayziyeva, O'zbekiston Ekologik partiyasi Toshkent shahar Kengashi raisi. Electron resurs – URL: https://uza.uz/oz/posts/markaziy-osiyoda-suv-muammolarini-hal-qilishdagi-ustuvor-vazifalar_250917. (murojaat sanasi: 08.12.2025).